

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi olimlar Kengashida 2025 yil may 28 № 51 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Tibbiyot texnikasi va innovasion texnologiyalar bo'yicha injener texnik xodimlar
O'quv dastur nomi	Yuqori texnologik tibbiyot texnikasini ta'mirlash va servis xizmatini tashkil etish
O'qish turi	Umumiy malaka oshirish kursi
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Jiyanbayev O.E., Haqqulov M.K., Abdullayev I.N., Nazirov R.M.
Siklning umumiy soati	144 Kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar


 Jiyanbayev O.E.	 Haqqulov M.K.	 Abdullayev I.N.	 Nazirov R.M.
--	--	---	---

Maqsad	"Yuqori texnologik tibbiyot texnikasini ta'mirlash va servis xizmatini tashkil etish" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Dastur tibbiyot muassasalarida ishlatilayotgan yuqori aniqlikdagi diagnostik, laboratoriya, reanimatsion va boshqa tibbiy uskunalarning tuzilishi, ishlash prinsipi, texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha chuqur tayyorgarlikni ta'minlaydi.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Oliy va o'rta maxsus texnik ma'lumotli mutaxassislar xamda ushbu yo'nalishda magistraturani tugatgan shaxslar (muxandislar, texnik xodimlar va boshq.) shuningdek, tibbiy asbob-uskunalarini klinik amaliyotda qo'llaydigan shifokor va o'rta tibbiy xodimlar

Sikl vazifalari	1. Zamonaviy tibbiy texnikalardan foydalanish bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish, mustahkamlash hamda amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirish; 2. Tibbiy jihozlardan xavfsiz foydalanish tamoyillarini o'rgatish va real sharoitlarda ularni to'g'ri qo'llashni ta'minlash; 3. Tibbiy texnologiyalarda qo'llaniladigan dasturiy va texnik vositalarning ishlash asoslari, interfeyslari va ularning funksional imkoniyatlari bilan tanishtirish; 4. Tibbiy xodimlarga zamonaviy jihozlardan to'g'ri va samarali foydalanish bo'yicha texnik maslahatlar berish va servis ko'magini tashkil qilish bo'yicha metodik yondashuvlarni shakllantirish; 5. Asosiy o'lchov asboblari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kalibrlash, sozlash va servis nazoratini olib borish imkoniyatini ta'minlash; 6. Asbob-uskunalarni tashxislashda to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'lchov metodlarini qo'llash, ish rejimlari va signal ko'rsatkichlarini tahlil qilish bo'yicha bilimlar berish; 7. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari bilan tanishtirish orqali uskunalarning klinik qo'llanilish kontekstini anglashga imkon yaratish; 8. Tibbiy texnika servis xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha sifat menejmenti asoslari bilan tanishtirish, ISO standartlariga mos yondashuvlarni o'rgatish.
Sikl tarkibi	Modul:Yuqori texnologik tibbiy texnikani ekspluatatsiya qilish va xavfsiz ishlatish asoslari Modul: Servis xizmatini tashkil etish, boshqarish va sifat nazorati
O'qish bazalari 1.V.Voxidov nomidagi respublika ixtisoslashkan xirurgiya markazi	KAFEDRANING KLINIK BAZALARI 1. Tibbiyot texnikalariga xizmat ko'rsatish o'quv ishlab chiqarish markazi 2. «CHIRANA ASIA» MCHJ QK 3. «Magnum Medikal Servis» MCHJ 4. «TCMT» MCHJ QK



5. TOSHKENT SHAHAR TEZ TIBBIY YORDAM
KLINIK SHIFOXONASI
6. BOLALAR MILLIY TIBBIYOT MARKAZI
7. TXKMRRM klinik shifoxonasi



Simulyasion asbob/uskunalar

